



I S T E ' M O L B O Z O R I


(dastlabki ma'lumot)

2018 yil yanvar-noyabr

Chakana savdo aylanmasi joriy yilning yanvar-noyabr oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,6 %ga oshdi.


Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 12,2 %ni tashkil etdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 42,3 %ga o'sdi.

**2018 yil yanvar-noyabr oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda,
chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da)**



Viloyatning barcha hududlarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari kuzatildi. Vobkent (13,7 foiz), G'ijduvon (9,2foiz), Buxoro shahri (8,7%), Peshku (3,9 foiz) va Qorako'l tumanlari (3,7foiz), chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi

Hududlarning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, %da



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Buxoro shahri (33,7%), G'ijduvon (17,3 foiz), Qorako'l (9,5foiz), Romitan (6,1foiz) va Jondor (5,8 foiz) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi.


KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,8 %ga oshdi va jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmining 76,4%ini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari umumiyl tovar aylanmasi hajmining 829,3 mlrd. so'mini uyushmagan savdo tashkil qildi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 11,4 %ni tashkil etdi.



Jami chakana savdo aylanmasida kichik tadbirkorlikning ulushi, %da



Chakana savdo tovar aylanmasi umumiyl hajmida eng katta ulush Peshku tumanida— 88,7%, Olot tumanida— 88,3%, Buxoro tumanida— 88,2 %, Romitan tumanida 85,5%, Jondor tumanida 83,7 %, Qorovulbozor tumanida 80,5 %, qayd etildi. eng kichik ulush Vobkent tumanida-69,8%, va Buxoro shahrida-67,9%, qayd


2018 yil yanvar-noyabr oylarida ULGURJI TOVAR AYLANMASI

2018 yil yanvar-noyabr oylarida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 1824,0 mlrd. so'mni yoki 2017 yilning shu davriga nisbatan 102,4 %ni tashkil qildi.

Ulgurji tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan Vobkent tumanining (84,3 %), Romitan tumanida (82,1 %) kamayishi kuzatildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 11,8 %ga oshdi va 1196,2 mlrd. so'mga yetib, umumiyligi ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 65,6 %ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning ulgurji savdodagi ulushi (foizda)



Buxoro viloyati statistika boshqarmasi
Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

Z.Saidova(0371) 230-83-22